


## QORAQALPOG`ISTON RESPUBLIKASINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyun)


Qoraqalpog`iston Respublikasi bo`yicha joriy yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 721,2 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 8,4 %ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 312,9 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 152,1 %), kichik tadbirdorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 2 408,2 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 104,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 130,6 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 101,4 %) tashkil etdi.

### Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so`m)



2018 yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Nukus shahri, Shumanoy, To`rtko'l va Qonliko'l tumanlarida qayd etildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (respublika umumiy hajmiga nisbatan ulushi - 30,0 %), Beruniy (9,6 %), Xo'jayli (9,5 %), To'rtko'l (9,0 %) va Qo'ng'irot (7,2 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 52,1 %ga o'sdi va 312,9 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,5 %iga to`g`ri keladi.


Kichik tadbirdorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra 2 408,2 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 4,5 %ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,5 %ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2018 yil  
yanvar-iyun




2019 yil  
yanvar-iyun



Yirik korxonalar  
 Kichik tadbirdorlik

### Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik tadbirdorlikning ulushi, (%)



Kichik tadbirdorlik  
 Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirdorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Qonliko'l (99,8 %), Qorao`zak (99,7 %), Nukus (99,5 %), Kegayli (99,4 %) va Taxtako`pir (99,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,5 %ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (29,1 %), Taxiatsosh (17,7 %) va To`rtko'l (9,5 %) tumanlarida kuzatilgan.

### Kichik tadbirdorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirdorlik (mln.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	<b>312 914,5</b>	<b>152,1</b>	<b>2 408 241,3</b>	<b>104,5</b>
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	8 831,9	81,0	176 691,7	108,3
Beruniy	5 610,3	91,6	255 127,2	107,9
Qonliko'l	151,1	190,2	72 655,5	107,6
Qorao`zak	326,0	64,2	93 000,9	106,2
Kegayli	327,5	101,7	58 314,0	104,9
Qo`ng`iroq	7 270,4	170,6	188 230,7	105,3
Mo`ynoq	346,0	98,9	19 267,0	105,0
Nukus	280,8	69,7	51 479,5	106,9
Taxiatsosh	11 243,3	94,2	52 370,4	109,5
Taxtako`pir	423,8	88,3	71 535,8	105,5

To`rtko'l	23 130,7	86,8	220 998,9	110,5
Xo`jayli	5 401,0	150,3	252 985,8	106,4
Chimboy	9 563,5	106,3	101 900,4	105,5
Shumanoy	454,6	124,0	60 116,1	107,6
Ellikqal`a	2 614,9	184,0	155 213,6	105,1
Nukus sh.	236 938,7	183,2	578 353,9	97,2

2019 yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo`yicha aholi jon boshiga 1 450,6 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 6,8 %ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-iyun oylarida o`tgan yilning shu davriga nisbatan respublikamizning barcha tumanlarida o`sish qayd etilib, eng yuqori ko`rsatkichlar Nukus shahri (2 579,0 ming so`m), Xo`jayli (2 126,7 ming so`m) va Taxtako`pir (1 801,8 ming so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar Mo`ynoq (624,8 ming so`m), Kegayli (655,2 ming so`m) va Taxiatosh (870,8 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich respublika shahar va tumanlari kesimida quydagicha ko`rinish olgan:

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	<b>1 450,6</b>	<b>106,8</b>
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	946,3	104,5
Beruniy	1 383,9	105,4
Qonliko`l	1 443,1	106,3
Qorao`zak	1 780,1	105,2
Kegayli	655,2	104,2
Qo`ng`irot	1 519,1	105,5
Mo`ynoq	624,8	103,4
Nukus	1 047,8	104,4
Taxiatosh	870,8	105,1
Taxtako`pir	1 801,8	104,9
To`rtko`l	1 156,1	105,7
Xo`jayli	2 126,7	105,7
Chimboy	966,0	104,4
Shumanoy	1 087,1	106,8
Ellikqal`a	1 007,4	103,6
Nukus shahri	2 579,0	111,1

Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyun oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,9 %ni tashkil etib, 79,8 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 6,2 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.


### **QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

*(2019 yil yanvar-iyun)*

Yil boshidan respublika bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 893,9 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 23,4 %ga o`sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko`ra 480,9 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 101,0 %ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 53,8 %ni tashkil qilmoqda. Ushbu ko`rsatkichni tumanlar bo`yicha tahlil qilganda, Beruniy, Qorao`zak, Qo`ng`iroq, Qonliko`l, Mo`ynoq, Nukus, Taxtako`pir va Ellikqal`a tumanlarida 100 %ni tashkil etgan.

#### **Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 46,2 %ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Xo`jayli (jamiga nisbatan ulushi – 95,8 %), Nukus shahri (44,9 %) va Amudaryo (7,9 %) tumanlarida kuzatildi.

### **Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi**

	Jami (mln.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mln.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qoraqalpog`iston Respublikasi</b>	<b>893 861,2</b>	<b>123,4</b>	<b>412 937,3</b>	<b>166,3</b>	<b>480 923,9</b>	<b>101,0</b>
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	5 712,8	102,1	450,4	117,1	5 262,4	101,0
Beruniy	34 054,3	100,6			34 054,3	101,1
Qonliko'l	7 229,4	101,1			7 229,4	101,1
Qorao`zak	1 383,1	101,0			1 383,1	101,0
Kegayli	402,4	96,9	0,5	2,8	402,0	100,7
Qo`ng`irot	13 679,5	100,8			13 679,5	101,0
Mo`ynoq	556,2	100,7			556,2	100,7
Nukus	48 859,1	100,8			48 859,1	100,8
Taxiatosh	13 515,7	100,2	362,4	72,4	13 153,3	101,3
Taxtako`pir	5 139,0	100,7	0,1	0,4	5 138,8	101,4
To`rtko'l	22 551,1	89,3	1 573,2	35,1	20 978,0	100,9
Xo`jayli	188 917,6	2,2 b.	180 927,5	2,3 b.	7 990,1	100,9
Chimboy	8 802,2	91,8	383,8	29,8	8 418,4	101,4
Shumanoy	115,9	92,5	2,3	18,5	113,6	100,7
Ellikqal`a	31 935,3	100,8			31 935,3	100,8
Nukus sh.	511 007,6	115,8	229 237,1	141,4	281 770,5	101,0

**Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati To'rtdko'l (89,3 %) tumanida qayd etildi.